



BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI ATROF-MUHITGA MAS'ULIYAT XISSINI SHAKLLANTIRISH METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI

¹Qurbonova Baxtixon Qo'chqorboyevna

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farg'ona davlat universiteti

²Alikulova Dilnoza Mengnarovna

Farg'ona davlat universiteti pedagogika fakulteti ta'lim

tarbiya nazariyasi (boshlang'ich ta'lim)

yo'nalishi 2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7949857>

ARTICLE INFO

Received: 10th May 2023

Accepted: 18th May 2023

Online: 19th May 2023

KEY WORDS

Ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, axborot-kommunikasiya texnologiyalari, ta'lim kompetensiyalari.

ABSTRACT

Maqolada ekologik ta'lim, boshlang'ich maktab, o'quv jarayoni, ekologik madaniyat, mablag'lardan foydalanish, o'quv jarayoni, o'quvchilar tomonidan yaratilgan ijobiy, fan o'quv-uslubiy majmuasi, ona zamin.

Ekologiya jamiyatimizda muammoga aylandi. Inson faoliyatining ko'p turlari er yuzini tubdan o'zgartiradi, shuning uchun hayvonlar, qushlar va o'simliklarning yashash sharoitlari. Inson bundan keyin nima bo'lishini o'ylashi kerakmi? Axir, Yer bizning uyimiz, biz shu yerda yashaymiz, shu suvdan ichamiz, shu havodan nafas olamiz. Bu yerdagi hamma narsa biz uchun aziz bo'lishi kerak: kichik oqim va yo'l bo'yidagi jingalak qayin! Va atrofida befarqlik, shafqatsizlik, tabiatga e'tiborsizlik! Farzandlarimiz tushunishi kerak: o'rmonlar, daryolar, o'tloqlar halokat yoqasida. Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun kattalar uchun ekologik muammolarni hali hal qilib bo'lmaydi. Ammo, yigitlar allaqachon qila oladigan narsa: turli xil hayvonlar va o'simliklarning hayoti haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ling, daraxt ekish, bog'ga g'amxo'rlik qilish, qishda qushlar va hayvonlarni boqish, chumoli uyasi, tozalashni himoya qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ekologik bilimlarga ega bo'lishlari, ularning sog'lig'iga ta'sir qiladigan doimiy ekologik o'zgarishlarning sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik bilimlari atrof-muhitga, jamiyatga va o'ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradigan bunday qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan gumanistik pozitsiyalarga asoslanishi kerak. Umumjahon ekologik ta'limsiz, inson tafakkurini ushbu yo'nalishda qayta tashkil qilmasdan turib, dolzarb ekologik muammolarni hal qilib bo'lmaydi va bilasizki, XXI asr boshlariga kelib ularning ko'pi yig'ilib qolgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash ekologiya sohasidagi zamonaviy bilimlarni hisobga olmasdan mumkin emas.

Shahrimizdagi ko'plab boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiya fanidan darslar boshlab yuborilgan. Bog'chalardan maktabimizga kelgan ko'plab boshlang'ich sinf o'quvchilar allaqachon ekologik bilimlarga ega, albatta, biz ekologik ta'limda uzluksizlikni saqlamoqchimiz.



Yuqorida belgilab chiqilgan atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi boshlang'ich ekologik ta'lim va tarbiya mazmunini joriy etish uchun tegishli bilim va malakalar hosil qilishni ta'minlaydigan boshlang'ich ta'lim yoshidagi boshlang'ich sinf o'quvchilar saviyasiga mos va xos ish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqish tadqiqotimizning eng muhim vazifalaridan biri sanaldi. Chunki, metodik adabiyotlar tahlilidan eslatganimizdek, tarbiyachilarning qo'llarida bunday metodik tavsiyalar yo'qligi ularning bu boradagi ishini muayyan darajada qiyinlashtiradi. Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlari o'ziga xos. Shunga ko'ra ham ularning yosh xususiyatlariga mos va xos ish usullaridan foydalanish taqozo etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish metodlari bilan bog'liq masalalarni ijobiy yechish uchun ijtimoiy ekologik boy tajribalardan kelib chiqish kerakligi tabiiy. Buning uchun tarbiyachi ta'lim va tarbiya maqsadini ko'zda tutgan holda birinchi navbatda bugungi ekologik vaziyatning asl mohiyati, uning tabiat va jamiyat oldiga qo'ygan muammolaridan to'la xabardor bo'lmog'i, ta'lim va tarbiya mazmunini boshlang'ich sinf o'quvchilar ongi va axloqiga singdirish zaruriyati va ehtiyojlarini hisobga olmog'i lozim.

Tabiatni muhofaza qilishning muhim vositalari: xalq pedagogikasi, o'zbekona urf odatlar, boshlang'ich sinf o'quvchilar badiiy adabiyoti, radio, televidenie va boshqa ommaviy vositalar orqali olib boriladigan ko'rsatuv va eshittirishlar, tashviqotlar, shuningdek, mashg'ulotga olib kiriladigan san'at asarlari ekologik ta'lim-tarbiyada hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Shunga ko'ra, aholiga ekologik bilimlarni xalqimiz to'plagan meros asosida berish, dastlab oilaning o'zida tarbiyaviy jihatdan to'g'ri munosabatni tarkib toptirish ekologik ta'lim va tarbiya borasidagi ijtimoiy vazifalardan biridir. Ana shu munosabatga doir tushunchalar dastlab oilada, boshlang'ich sinf o'quvchisida, so'ngra maktabda uzviy rivojlantirilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida va oilada boshlang'ich ekologik tarbiyaning eng samarali yo'llaridan biri uni mehnat tarbiyasi bilan qo'shib olib borish, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchining bo'sh vaqtlarini foydali ishlarga jalb qilishdir. Chunki tabiatga ozor berish bilan bog'liq bo'lgan sho'xliklar ma'lum darajada boshlang'ich sinf o'quvchining bo'sh qolishi natijasida kelib chiqadi. U qiladigan ishi yo'qligidan mushukning dumiga ip bog'laydi, qushlarning iniga chiqib, polaponlarini oladi va hokazolar. Aslida boshlang'ich sinf o'quvchi jonvorlarga ozor bermasdan, ular bilan do'st tutunib ham olam-olam zavq olishi mumkin. Biz unga qanoatli do'stlari uchun inlar yasab, ho'raklar tayyorlashni o'rgatishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ekologik ta'lim va tarbiyaga doir mavjud tadqiqot ishlarida tavsiya etilishicha, bu borada quyidagi metodlardan foydalaniladi: tushuntirish, ko'rsatmali, amaliy; induktiv va deduktiv, reproduktiv, muammoli; suhbat, savol-javob; hikoyalar, rivoyatlar, maqolalar o'qib berish, qayta hikoya qilish; izohlash, ko'zdan kechirish; kuzatish; qiyoslash va taqqoslash; tasavvur qilish; ishontirish, ibrat olish uchun misol va namuna keltirish; talab qilish, odatlantirish va rag'batlantirish; o'yinlar, shu jumladan, improvizatsiyalarda ishtirok etish, kolleksiya to'plash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalar, shakllar va metodlarni.

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda foydalanilgan metodlar jumlasiga kuzatish va tushuntirish



metodi kiradi. Mashg'ulotlarda kuzatish ob'ektlari maxsus uyushtirildi. Shu o'rinda nimalarni kuzattirish mumkin, degan savol tug'ildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar tabiat bilan bir butun organizm darajasida tanishdilar. Eng avval ayrim o'simliklar, hayvonlar, ularning yashash usullari boshlang'ich sinf o'quvchining idrok va faoliyat ob'ektiga aylandi. Jonli tabiat ob'ektlarining tashqi muhit bilan aloqasi o'quv-biluv mavzui bo'lib qoldi: o'simliklar oziqlanish uchun o'z ildizi bilan tuproq ichkarisiga kirib boradi, hayvonlar makonda joy almashtirib yuradi, ovqat topib yeydi va shu kabilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchining diqqat markazida turgan ayrim tabiiy ob'ekt va hodisalar biologik va ekologik bilimlarning didaktik tahlili uchun tayanch bo'g'in bo'lib xizmat qildi.

Ayniqsa, harakatlanadigan yorqin, rangin ob'ektlar maktabgacha yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida alohida, o'ta kuchli qiziqish uyg'otdi, xotirasida timsollar qoldirdi. Ana shu ob'ektlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarning hayvonlar o'zlari yashab turgan muhitga moslashganliklari kuzatildi. Masalan, qo'y va sigir kabi uy hayvonlarining o't-o'lanlar bilan ovqatlanishi ana shunday moslashuv oqibati ekanligiga yaqqol misol bo'la oladi.

O'simlik va hayvonlarning ayrim ko'zdan yana ham uzoqroq bo'lgan bog'liq jihatlari, bundagi o'zgarishlarni kuzatish boshlang'ich ta'lim yoshidagi boshlang'ich sinf o'quvchilar fikrlashini ekologik yo'naltirish, ularni tahlil qilish va solishtirish yo'li bilan anglashga o'rgatish imkonini berdi.

Idrok etilayotgan tabiat ob'ekti yoki hodisalari aniq va ravshan ko'rinib turishi, tushunarli va boshlang'ich sinf o'quvchiga yaqin bo'lishi ta'minlandi. Ob'ektni avval bir butun, keyin qismlari bo'yicha kuzatish va yaxlit taassurot uyg'otish, yo'naltiruvchi savollar berib borish, ekologik omillarga bog'liq jihatlarni toptirish amalga oshirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga tabiatning nafasatli namunalarini ko'rsatgan, go'zallikni idrok ettirgan, uning qismlarini o'rgangan, sensor tekshiruv o'tkazgan, tabiiy go'zallikning turli xil o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini tushuntirgan holda suhbatlar o'tkazish katta naf keltiradi.

Tabiat ob'ektlarini ko'zdan kechirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarning kuzatishlarini boshqarish, olgan estetik-ekologik taassurotlari haqidagi avvalgi bilimlaridan foydalanish, yangilarini ketma-ket hikoya qilish yo'li bilan ma'lum qilish maqsadga muvofiqdir. Ekologik bilimlarga doir estetik tushunchalarni boshlang'ich sinf o'quvchilar ongiga singdirish va ularni go'zallikning eng oddiy alifbosidan bahramand qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni eshitilganlar yuzasidan estetik-ekologik mazmunda o'zaro suhbatlashishga da'vat etish, qayta hikoya qilishni talab qilish zarur bo'ldi. Ayniqsa, ekskursiya, sayr haqidagi hikoyalar mazmunli chiqdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiatdagi har bir narsaning betakror go'zallik ekanligini anglatish, his ettirish, kuzattirish, har bir narsaning o'ziga xosligini aniqlatish, ularning o'zaro munosabatda va o'zaro aloqada ekanligiga ishora qiluvchi belgilarini ajratish muhim rol o'ynadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan bog'chaga kelishda va ketishda, ko'cha-ko'yda atrof-muhitga qanday zarar yetkazilayotganligini ko'rganliklari haqida so'zlab berish so'raldi. Bu usul kichkintoylarda kuzatuvchanlikni va ekologik tarbiya olgan yoki olmagan odamlar orasidagi farqni ajratish tuyg'ularini o'stirdi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilar quyidagicha gap topib keldilar: «Bir boshlang'ich sinf o'quvchi gugurt olib, xazonlarni yoqdi. O'tib ketayotgan bir kishi uni koyib, olovni o'chirtirdi» va hokazo.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida ekologik muammolar aks etgan videofilmlardan foydalanish katta naf keltirishi ma'lum bo'ldi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilar bop bunday kassetalar va filmlar ko'payib bormoqda. Har bir namoyishdan so'ng boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan ko'rilgan filmlar haqida suhbat o'tkazildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisini darhol ushlab ko'rmoqchi, ularning oldiga borib silamoqchi, orqasidan quvlab ushlab olmoqchi bo'lganliklarini ko'p marta ko'rganmiz va kuzatganmiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilar bu jonvorlarga tezda in yasashga kirishadilar. Uni parvarish qilishga otlanadilar. Ota-onalar boshlang'ich sinf o'quvchining zo'r hafsala va ishtiyoq bilan boshlagan ana shu tashabbusini qo'llab-quvvatlashlari va maslahatlar bilan unga yaqindan yordam berishlari kerak.

Rolli o'yinlar har bir ishtirokchiga mustaqillik va uyushqoqlik namoyon etish imkonini berdi. Ijodiy rolli o'yinlar tushunchalarni, tasavvurlarni, faktlarni tiklash, qayta guruhlash tariqasida kechdi. Masalan, rolli o'yin sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilaridan biri maqbul va nojo'ya harakatlar qilib ko'rsatadi. Nojo'ya xatti-harakatga kelganda, boshlang'ich sinf o'quvchilar: «To'xta!» - deb buyruq berishlari kutiladi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, bunday paytlarda ko'p vaqt sukutda bo'ladigan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham qat'iyat, jur'at paydo bo'ldi. Bu esa o'yinning muhim jihati hisoblanadi.

Tabiat bilan insonning o'zaro aloqador ekanligini o'rgatish, umuman, boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish - uzoq vaqtni o'z ichiga oladigan jarayon. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarning atrof-muhit, tabiat bilan har tomonlama doimiy aloqalarini ta'minlash zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchisi hududida, sayr chog'ida bog'da, tabiat quchog'ida bo'lish, bu muddatda turli xil ekologik o'yinlar uyushtirish ana shu imkoniyatni yuzaga keltiradi.

Bunday misollardan ko'plab keltirish mumkin. Shularni oilada ota-onalar o'z farzandlariga juda yoshlikdan boshlab uqtirib borsalar, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat, uni asrab-avaylashga xos tuyg'ularni uyg'otishga muvaffaq bo'ladi. Tarbiyachi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarga Hadisi sharifdan tegishli bandlar aytib turishi katta samara keltiradi.

Hadisda hayvonning yosh boshlang'ich sinf o'quvchisini qurbonlik qilmaslik, ya'ni populyatsiyaning yosh tuzilmasini saqlab qolish, voyaga yetgandan keyin undan foydalanish, shuningdek, bahor oylari ko'pchilik hayvonlarning ko'payish davri bo'lganligi uchun shu vaqtda qurbonlik qilinmasligiga to'xtalib o'tilgan. Albatta, bu tushunchalar boshlang'ich ta'lim yoshidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarning anglashlari uchun qiyin. Qolaversa, ular uy hayvonlarining so'yilishini sira ham istamaydilar.

Hadislardan namunalar:

Qo'y boq, zero u ayni barakadur.

Otning peshonasiga qiyomatgacha yaxshilik yozilgandir. Uni boqqan yaxshilik oladi.

Kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do'zaxga tashlanadi.

Tejab sarflagan kambag'al bo'lmaydi.



Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o'tqazsa, so'ng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekanidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi.

Suvga tupurma, makruh bo'ladi [115. 157-158].

Pandu nasihatlar berish. Ajdodlarimiz o'z farzandlariga oila davrasida pandu nasihatlar qilganlar va turli suhbatlarda quyidagilarni alohida uqtirganlar:

- suvni iflos qilma, barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi;
- rizq-ro'zingni isrof qilma, gunohkor bo'lasan;
- pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo'ladi, chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor.

Mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» asarida oila tarbiyasi xususida quyidagi pand-nasihatlarini bayon qilgan: «Birinchisi, oiladagi eng ulug' fazilat ezgulik va go'zal xulqdir; ikkinchisi, rostlik; uchinchisi, hayotda tabiatga ziyon yetkazmaslik hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi baxtiyor bo'ladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi».

Tajriba yo'lga qo'yilgan guruhlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarni nojo'ya ishdan ogohlantirish ko'cha-ko'yda, mahallada tabiatga yetkazilgan ziyon haqidagi xabarlarga bog'lab olib borildi. Bu usulning samarasi yana ham yuqori bo'ldi.

Sayrga chiqish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni sayr vaqtida dalada o'tloqda o'tlab yurgan qo'y, echki va buzoq, sigirlar bilan yaqindan tanishtirish uchun ularning yashash sharoiti, insonlar uchun foydasi haqida hikoya qilib borildi. Ovqatimizni mazali qilayotgan go'sht, yog', quymoq, sut va qatiqlar shu hayvonlar tufayli ekanligi boshlang'ich sinf o'quvchilarga tushuntirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatlilikni shakllantirish borasida oila va boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatidagi ilg'or tajribalar, pedagogik adabiyotlar o'rganildi. Ular matbuotda, jurnallar va pedagogik o'qishlarda, suhbatlar va ilmiy amaliy seminar, konferensiyalarda o'z ifodasini topmoqda. Bu ishlarning ko'lami keng bo'lishiga qaramay, aksariyat oilalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarida olib borilayotgan ekologik ta'lim-tarbiyaviy ishlarning umumiy saviyasi, sifati, samaradorligini yaxshi deb bo'lmaydi.

Tajribaviy boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhit, ekologiyaga oid atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatning shakllanishiga yordam beradi.

Xullas, boshlang'ich sinf o'quvchilarning tabiat bilan o'zaro aloqada amalga oshadigan har qanday ko'rinishdagi faoliyatida, xususan, mavzuiy mashg'ulotlarda idrok va hissiyot, xotira va tafakkur, diqqat, xayolot, iroda qatnashadi, atrof-muhitga bo'lgan qiziqishi ortadi, bilishga ehtiyoji rivojlanadi, nutqi o'sadi, ularda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanadi. Bularning tashqi va ichki tomonlari o'zaro qo'shilishi natijasida amaliy ekologik harakat va ekologik ongning chambarchas aloqasi yuzaga keladi.

Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan oilalarning hamkorlikdagi ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalar ishimizning keyingi bo'limida o'z ifodasini topgan.



References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 36 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, "Xalq so'zi", 2020 yil 24 sentyabr, 202 (7704)-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019 yil 30 oktyabrg'.
4. Avezov Sh. O'quvchi shaxsida ekologik madaniyatni tarkib toptirish haqidagi masalaga doir / O'quvchi shaxsining axloqiy xislatlari-ni shakllantirish: Ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent, 1991. -B. 62-67.
5. Yuldashovich K. A., Kholi Y. A model for the formation of primary education students'careful attitude to nature in extra-curriculum activities //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 68-74.
6. Yuldashovich K. A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 01-05.
7. Kuchkinov AY Boshlangich sinf oquvchilarini tabiatni ezozlash ruhida tarbiyalash //Oqituvchilar uchun metodik qollanma-T.:", "Fan va texnologiya. - 2012. - T. 88.
8. Kuchkinov AY Sinf dan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalash //Boshlang 'ich ta'lim jarayoniga innovatsion ishlab chiqarish respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - 2019. - S. 189-192.